



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

КУТУБХОНАСИ



XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Tazmin
Tashbeh
lyhom
Hojib
Qofliya
Muammo
Tajnis
Tashxis
Istiora
Radif
Kitobat
Takrir
Tazod

BADIIY SAN 'ATLAR

**A. ASALLAYEV, V. RAHMONOV,
F. MUSURMONQULOV**

BADIIY SAN'ATLAR

**«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2015**

83.3(5U)

A82

Asallayev A.

Badiiy san'atlar: [Lug'at-ma'lumotnoma] A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov. – T.: TAFAKKUR, 2015 – 24 b.

I. 1, 2 Muallifdosh.

Mazkur risola xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyotimizda keng qo'llanilib kelayotgan badiiy san'atlar ilmidan dastlabki ixcham ma'lumot berish maqsadida yozildi.

Risola o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari uchun, akademik litseyilar, kollejlilar, gimnaziylar, o'rta maktab o'quvchilari hamda abituriyentlarga mo'ljallangan. Misollar V–IX sinf «Adabiyot» darslik va majmualaridan olingan.

Adabiy-badiiy nashr

A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov

BADIIY SAN'ATLAR

Muharrir *B. Jovliyyev*. Badiiy muharrir *H. Safaraliyev*. Texnik muharrir *D. Gabdrahmanova*. Kompyuterda sahifalovchi *O. Muxtorov*, *Musahhih U. Abdurahmonova*

Bosishga 12.01.2015-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Tayms garnitura. Ofset bosma. 1,26 shartli bosma toboq. 1,0 nashr tobog'i. Jami 2000 nusxa. Buyurtma № 30.

Bahosi shartnoma asosida.

«ADAD PLYUS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 28-uy.

ISBN 978-9943-24-147-3

© «TAFAKKUR» 2015

KIRISH

Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodalilik va xushohanglik vositalari badiiy san'atlar deyiladi. Buni o'rganadigan fanni «Ilmi sanoye'» yoki «Ilmi bade'» deganlar. Sharqda she'riyat asosiy janr bo'lganidan ko'pincha she'r san'atlari tushunchasi ham badiiy san'atlar ma'nosida qo'llaniladi.

Matnda ma'noni teranlashtiradigan, ko'pma'nolilikni yuzaga chiqaradigan, ta'sirchanlik yaratadigan xilma-xil badiiy vositalar bo'ladiki, ularni ko'pincha matn ma'no-mazmuniga ko'ra idrok etamiz. Bular – ma'naviy san'atlardir.

Matnda xushohanglik yaratadigan, ifodalilikni kuchaytiradigan, tovush mushtarakligi yoki uyqashligini yuzaga chiqaradigan, asosiy holatlarda so'z takroriga asoslangan badiiy san'atlar bo'ladiki, ularni ko'z bilan ko'rib kuzatish va eshitish imkoni bor. Bu – lafziy san'atlardir.

Deyarli o'n asrlik o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari arab yozuvida bitildi. Eski yozuv – arab alifbosi bilan bog'liq, harflar shakliga aloqador yoki harf daxli tufayli so'z o'zgartirish san'atlari ham birmuncha uchraydiki, biz ularni harfiy san'atlar deb atadik.

Badiiy san'atlar – o'quvchi uchun adabiyot nafosati va sehlrlarini idrok etish maktabi bo'lsa, havaskor shoir uchun mahorat saboqlaridir. Bularni bilgan kitobxon she'riyatimizdan chinakam boy badiiy-hissiy lazzat oladi; shoirlar yuqori mahoratli so'z san'atkorlari bo'lib yetishadilar. Muhimi, kitobcha til va adabiyot o'qituvchilari uchun qo'llanma, abituriyentlar uchun test topshiriqlarini yechish kalitidir.

MA'NAViy SAN'ATLAR

TASHBEH – O'XSHATISH SAN'ATI

Bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatish tashbeh deb ataladi. O'xshatishdan kuzatiladigan badiiy maqsad – obrazlilikdir.

Sekin: «Bilmayman», – dedi,

Bo'zday oqargan edi.

Boshi ketgan qush kabi

Darxon pitirlab qoldi.

Qilichday o'tkir edi,

Rustam kabi zo'r edi.

Yo'llarda zig'irday ko'rinayotgan mashinalar xuddi sich-qonlardek g'izillar, ular orqasidan uzun dum – chang-to'zon ko'tarilardi. («Oq kema»)

Quzg'unning qanotiday

Qaro edi o'sha tun

Avtomatlar bosh uzra

Ko'tarildi tug'simon.

Ona bag'rida yotgan

Ma'sum go'dak singari.

Umri xola o'ng qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan. Boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. («Urushning so'nggi qurboni»)

Bo'ying sarv-u ko'zung nargis, yuzung gul,

Sening qoshingda bo'ston hojat ermas.

Lochin kabi samolyot uchar,

Uchar edi solib ovoza.

Bo'ying sarv-u sanubartek, beling – qil,

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/1162> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1162> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1162>